

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**BIOLOGIYADAN MASALA VA MASHQLAR YECHISH  
O'QUV DASTURI**

- |                     |                        |
|---------------------|------------------------|
| Bilim sohasi:       | 100000 - Ta'lism ✓     |
| Ta'lism sohasi:     | 110000 - Ta'lism ✓     |
| Ta'lism yo'nalishi: | 60110900 - Biologiya ✓ |

Chirchiq – 2023

*fayz*

Fan/modul kodi <b>BMM4011</b>	O'quv yili <b>2026-2027</b>	Semestr <b>8</b>	ECTS - Kreditlar <b>5</b>
Fan/modul turi <b>Majburiy</b>	Ta'lim tili <b>O'zbek/rus</b>	Haftadagi dars soatlari <b>4</b>	
1.	Fanning nomi <b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	<b>Biologiyadan masala va mashqlar yechish</b>	<b>60</b>	<b>90</b>
2.	<b>I. Fanning mazmuni.</b>  Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lg'usi biologiya fani o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini orttirish, ularda biologiyani o'qitishda biologik voqealarni, hoidisalaming mohiyatini mazmunan anglash jarayonida masala va mashqlardan foydalanish hamda yechish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi.  Fanning vazifasi - talabalarga biologiyani o'qitishda qo'llaniladigan masala va mashqlarning o'ziga xos xususiyatlari, turlari, guruhlari, tanlab olish mezonlari, biologiyadan masala va mashqlar yechish jarayonida o'quvchilarining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, biologiya o'qitishda masala va mashqlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan metodik bilimlarni shakllantirish, ko'nikmalarni tarkib toptirish, o'quvchilarining mustaqil va ijodiy hamda kreativ fikr yuritish ko'nikmalarni rivojlanishiga maqsadida ta'limgardagi tarbiya jarayonida turli mantiqiy yo'nalishdagi masala va mashqlardan foydalanishga o'rnatish, biologiyani o'qitishda masala va mashqlardan foydalanish bo'yicha dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarida biologik masalalar tizimini aks ettirgan ishlamalarini loyihalashga qaratilgan vazifalar bajariladi.  <b>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b> <b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b> <b>1-mavzu: Umumiy biologiyani o'qitishda masala va mashqlardan foydalanish usuli.</b>  Umumiy biologiyani o'qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda masala va mashqlardan foydalanish.  <b>2-mavzu: Biopolimerlar va lipidlar bo'yicha masala va mashqlar yechish.</b> Biopolimerlar: oqsillar, uglevodlar va nuklein kislotalar hamda lipidlarbo'yicha masala va mashqlar yechish ko'nikmalarni shakllantirish.  <b>3-mavzu: Plastik va energetik almashinuv bo'yicha masala va mashqlar yechish.</b> Genetik kod, oqsillar biosintezi va energiya almashinuv bosqichlariga doir		

- masala va mashqlar yechish yo'llari haqida umumiy tushuncha.
- 4-5-mavzular. Fotosintez mavzusi bo'yicha masallalar yechish.**  
Fotosintezning yorug'lik va qorong'ulik fazalari bo'yicha masalalar yechish ko'nikmalarni shakllantirish.
- 6-mavzu: Organizmlarning ko'payishi va individual rivojlanishi bo'yicha masala va mashqlar yechish.**  
Organizmlarning mitoz va meyozi bo'linishi, kariotip va urug'lanish jarayonlari hamda organizmlarning embrional va post embrional ko'payishi bo'yicha masala va mashqlar yechish.
- 7-8-mavzular. Genetika va seleksiya mavzulari bo'yicha masala va mashqlar yechish.**  
Mono-di-poliduragay chatishtirish, jinsga bog'liq va birikkan holda irlsylanish, allel bo'limgan genlarning o'zaro ta'siri hamda genlarning ko'p tomonloma ta'siriga doir masalalar yechish.
- 9-mavzu: Ekologiya bo'yicha masala va mashqlar yechish.**  
Ekologik omillar-biotik, abiotik, antropogen ta'sirlar, organizmlarning o'zaro ta'siri, biomassa, biogeostenoz, ekologik piramidalar, oziq zanjari, ekologik suksesiya hamda adaptiv tiplarga doir masala va mashqlar yechish ko'nikmalarni shakllantirish.
- 10-mavzu: Biologiyadan olimpiada masala va mashqlarini yechish metodikasi.**  
Respublika va xalqaro olimpiadalarida biologiya o'quv faniga doir masala va mashqlar yechish. Murakkab va aralash masala va mashqlar va ularni tanlash mezonlari.
- III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**  
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
1. Oqsil biositezi va genetik kod bo'yicha masala va mashqlar yechish.
  2. Energiya almashinuv bosqichlari bo'yicha masala va mashqlar yechish.
  3. Fotosintezga doir masala va mashqlar yechish.
  4. Mitoz bo'linish yuzasidan masala va mashqlar yechish.
  5. Meyoz bo'linish yuzasidan masala va mashqlar yechish. Organizmlarning embrional rivojlanishiga oid masala va mashqlar yechish.
  6. Organizmlarning postembrional rivojlanishiga oid masala va mashqlar

yechish.

7. G. Mendel qonunlariga oid masala va mashqlar yechish.
8. Kodominantlikka oid masala va mashqlar yechish.
9. T. Morgan qonunlari bo'yicha masala va mashqlar yechish.
10. Komplementar va epistazga oid masalalar yechish.
11. Polimer va genlaming ko'p tomonlama ta'siriga oid masalalar yechish.
12. Populyasiya genetikasiga doir masala va mashqlar yechish.
13. Seleksiya asoslari bo'yicha masala va mashqlar yechish.
14. Ekologik piramidalar va oziq zanjiri oid masala va mashqlar yechish.
15. Ekologik piramidalar va oziq zanjiri oid masala va mashqlar yechish.
16. Molekulyar biologiya mavzulari yuzasidan masala va mashqlar yechish.
17. Biotexnologiya asoslari mavzulari yuzasidan masala va mashqlar yechish.
18. Olimpiada masalalarini ishslash metodikasi.
19. Biologiyadan murakkab va aralash tipdagi masalalarni ishslash metodikasi.
20. Shajara daraxtini tuzishga doir masalalar yechish.

Amaliy mashg'ulotlari kichik guruhlarda o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mavzu mazmuniga mos ravishda munosib peadgogik texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limi baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimatlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

#### Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ilmiy, ilmiy-metodik jurnallarda chop etilgan va internet orqali berilgan ta'lif-tarbiya jarayonida foydalaniladigan masala va mashqlar haqidagi maqolalar va axborotlami tahlil qilish, o'z pedagogik faoliyatida foydalanish yo'llarini belgilash.
2. Biologiya darslarida foydalaniladigan masala va mashqlami aniqlash, shu asosda dars ishlanmalarini loyihalash.
3. Darsdan tashqari ishlarda masala va mashqlardan foydalanish yo'llarini belgilash.
4. "Sitologiya asoslari" hujayra organoidlari va hujayraning kimyoviy tarkibi yuzasidan masala va mashqlar yechish.
5. Oqsillar va aminokislotalar hamda ulaming organizmdagi roliga oid

masala va mashqlar tuzish.

6. Uglevodlar hamda ulaming organizmdagi roliga oid masala va mashqlar tuzish.
7. Lipidlar hamda ulaming organizmdagi roliga oid masala va mashqlar tuzish.
8. Oqsil biosinteziga doir masala va mashqlar tuzish.
9. Irsiyatning moddiy asoslariga oid masala va mashqlar tuzish.
10. Metabolizmga oid masala va mashqlar tuzish.
11. Hujayraning mitoz bo'linishiga doir masala va mashqlar tuzish.
12. Organizmlarning ko'payish turlariga doir masala va mashqlar tuzish.
13. Hujayraning meyoz bo'linishiga doir masala va mashqlar tuzish.
14. Organizmlarning embrional rivojlanishga oid masala va mashqlar tuzish.
15. Gametalar olish va monoduragay irsiylanish bo'yicha masala va mashqlar tuzish.
16. Di va pohduragay irsiylanish bo'yicha masala va mashqlar tuzish.
17. Jins genetikasiga oid masala va mashqlar tuzish.
18. Belgilaming to'liq birikkan holda irsiylanishga oid masala va mashqlar tuzish.
19. Belgilaming chala birikkan holda irsiylanishga oid masala va mashqlar tuzish.
20. Komplementar irsiylanishga oid masala va mashqlar tuzish.
21. Epistaz irsiylanishga oid masala va mashqlar tuzish.
22. Polimer irsiylanishga oid masala va mashqlar tuzish.
23. Pleyotropiyaga oid masala va mashqlar tuzish.
24. Modifikator genlar ta'siriga oid masala va mashqlar tuzish.
25. Modifikatsion o'zgaruvchanlikni statistik usulda o'rganishga oid masala va mashqlar tuzish.
26. Xromosoma mutatsiyalariga doir masala va mashqlar tuzish.
27. Oziq zanjiri va ekologik piramida qoidasiga oid masala va mashqlar tuzish.
28. Hozirga zamон seleksiyasi yutuqlariga oid masala va mashqlar tuzish.
29. Evolyusiya dalillari bo'yicha biologik mashqlar tuzish.
30. Biosfera ta'lomi bo'yicha masala va mashqlar tuzish.

3.

#### V. Ta'lif natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

##### Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- biologiyani o'qitishda qo'llaniladigan masala va mashqlarning o'ziga xos xususiyatlari, biologiyani o'qitishda qollaniladigan masala va mashqlarning turlari, guruhlarini;
- biologiyadan masala va mashqlar yechish jarayonida o'quvchilarining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni, o'quvchilarga tavofutlab va individual yondashish yo'llarini, o'quvchilarni kichik guruhlarda o'qitish, ijodiy izlanishlarni tashkil etish, o'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrplashni tarkib toptirish usullarini haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim).
- ilmiy, ilmiy-metodik jurnallarda chop etilgan va internet orqali berilgan ta'lif tarbiya jarayonida foydalaniladigan masala va mashqlar haqidagi maqolalar

va axborotlarni tahlil qilishi, to'plangan materiallardan o'z pedagogik faoliyatida foydalana olishi, biologiyani o'qitishda masala va mashqlardan foydalangan holda dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiya va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ishlannilarini loyihalash, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning samarali yo'llarini qo'llash, reyting tizimini amalga oshirish, o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish va foydalana olishi; (ko'nikma).

- biologiyani o'qitishda qo'llaniladigan masala va mashqlarning turlari, darajalarini bevosita amaliyotga tadbiq eta olishi, biologiyadan masala va mashqlar yechish jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni, biologiya o'qitishda masala va mashqlardan foydalananish uchun zarur bo'lgan metodik bilimlarni shakllantirish, ko'nikmalami tarkib toptirish, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ta'lif tarbiya jarayonida turli mantiqiy yo'nalishdagi masala va mashqlardan foydalana olish haqida malakalarga ega bo'lishi kerak.

4.	<p><b>VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimatlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
----	---

5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarini to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganiyotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriglarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriglarni bajarishi zarur.</p>
----	--

6.	<p><b>VIII. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. "Biologiyadan masala va mashqlar yechish" O'quv-qo'llanma. "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent-2017 y.</li> <li>2. G'ofurov A.T., Fayzullaev S.S., Raxniatov U.E. "Genetikadan masala va mashqlar yechish" O'quv-qo'llanma. Toshkent - TDPU 2014 y.</li> <li>3. Fayzullaev S.S., G'ofurov A.T., Matchonov B.E. Odam genetikasi. - Toshkent. "Ijod dunyosi" nashriyoti, 2003 yil.</li> <li>4. Turabekov Sh. va boshq. Genetikadan masalalar to'plami va ularni yechish usullari. Toshkent.2014. 168 b.</li> </ol> <p><b>IX. Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy</li> </ol>
----	---

javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.

3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017y., 6-son,70-modda.

4. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.

5. Azimov I va boshqalar Biologiya. Metodik qo'llanma. T., Abu Ali ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti. 2002 yil.

6. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Sitobiya va genetika asosları). O'quv-uslubiy qo'llanma. "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti. Toshkent-2018.

7. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Odam va uning salomatligi). O'quv-uslubiy qo'llanma. "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti. Toshkent-2017.

8. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Zoobiya). Uslubiy qo'llanma. Toshkent-2016.

9. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Botanika). Uslubiy qo'llanma. Toshkent-2016.

10. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. "Biologiyadan masala va mashqlar yechish" Elektron darslik. Toshkent-2017 y.

11. Raximov A.K., Matkarimov F.I va bosh "Genetikadan masalalar to'plami va ularni yehish usullari" Uslubiy qo'llanma. Toshkent-2021y.

12. Tara Rodden Rabinson Assistant Professor (Research), Oregon State University "Genetics For Dummies" Copyright 2005 by Wiley Publishing, Inc., Indianapolis, Indiana

#### Axborot manbalari:

1. [www.cspi.uz](http://www.cspi.uz) - CHDPU elektron sayti.
2. <http://www.president.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali
3. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi xukumati portali
4. <http://www.xs.uz> - "Xalq so'zi" gazetasi sayti
5. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjalari ma'lumotlar milliy sayti
6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz) - Respublika pedagogika ta'lif mussasalari sayti
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - Kutubxona kitoblar sayti
8. [tdpu-INTRANET. Ped](http://tdpu-intranet.tadu.uz) - Nizomiy nomidagi TDPU elektron sayti
9. <https://t.me/UzMUBiologiya> - O'zMU kutubxona kanali
10. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti
11. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) - A.Navoiy nomidagi O'z.MK

7.	<b>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “_____” _____dagi qarori bilan tasdiqlangan</b>
8.	<b>Fan/modul uchun ma'sul:</b> A.Q.Bo'ronov - CHDPU, "Genetika va evolutsion biologiya" kafedrasi v.b. dotsenti, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,(Ph.D). X.S.Nurmetov - CHDPU, "Genetika va evolutsion biologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi.
9.	<b>Taqrizchilar:</b> Sh.A.Xamidullayev- O'zRFA G va O'EB instituti katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari falsafa doktori. S.G.Boboyev – O'zMU "Genetika" kafedrasi mudiri, biologiya fanlari doktori ✓